

## 2023- yilning yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 3 274,4 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar - 3 205,3 mlrd. so'mni (103,9 %), o'rmon xo'jaligi - 63,5 mlrd. so'mni (101,9 %), baliqchilik xo'jaligi - 5,6 mlrd. so'mni (114,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Surxondaryo viloyatining ulushi 8,1 % ni tashkil etdi.

**3 274,4****Surxondaryo viloyati bo'yicha  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**3 205,3****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**63,5****O'rmon xo'jaligi**


03

**5,6****Baliqchilik xo'jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023- yilning yanvar-mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,9 % i - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 1,9 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,2 % i - baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


### **Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi**



2023- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Denov (523 mlrd. so'm) va Jarqo'rg'on tumanlarida (301 mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Termiz shahri (11 mlrd. so'm) va Bandixon tumanlari (60 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (102,9 %) yuqori o'sish sur'atlari Sherobod tumanida (119,9 %), Termiz shahrida (117,1 %), Bandixon (114,5 %), Jarqo'rg'on (109,0 %), Sariosiyo (106,9 %), Denov (106,5 %), Angor (104,7 %), Boysun (104,3 %), Muzrabot (103,5%) va Sho'rchi (103,1 %), tumanlarida kuzatildi. Qumqo'rg'on (101,5 %), Qiziriq (100,8 %), Oltinsoy (95,2 %), Uzun (87,3 %) va Termiz (85,4 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 161,2 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 572,2 mlrd. so'mni (94,6 %), chorvachilik mahsulotlari - 2 589,0 mlrd. so'mni (104,3 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**18,1 %**  
Dehqonchilik  
mahsulotlari



**81,9 %**  
Chorvachilik  
mahsulotlari

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 84,2 % i - dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 10,1 % i -fermer xo'jaliklariga, 5,7 % i - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining hududlar bo‘yicha xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)**



2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko‘ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo‘jaliklarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Denov tumanida (33,2 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Termiz shahrida (100,0 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Termiz tumanida (30,3 %) qayd etildi.


Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich Qiziriq tumanida (0,1 %), dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining eng kam ulushi Sherobod tumanida (60,8 %), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Uzun va Qiziriq tumanlarida (0,1 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2023- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 572,2 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 94,6 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 18,1 % ni tashkil qildi.

## Kartoshka


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 0,6 ming t. kartoshka (2022- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 4,9 % ga kam) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 85,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmogda.

## Sabzavotlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● **Fermer xo'jaliklari**

● **Dehqon va tomorqa  
xo'jaliklari**

● **Qishloq xo'jaligi faoliyatini  
amalga oshiruvchi  
tashkilotlar**




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 22,8 ming t. sabzavot (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 6,0 % ga kam) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmogda.





**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
sabzavot yetishtirish  
hajmi, tonna**




**Chorvachilik**



2023- yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 2 589,0 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 81,9 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 36,9 ming t. goʻsht (2022- yilning yanvar -martiga nisbatan 4,7 % ga koʻp), 144,8 ming t. sut (3,4 % ga koʻp), 109,2 mln. dona tuxum (2,3 % ga koʻp), 81,0 t. jun (9,5 % ga koʻp) ishlab chiqarildi va 245,2 t. baliq (23,0 % ga koʻp) ovlandi.

**Go'sht (tirik vaznda)**


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 36,9 ming t. go'sht (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 4,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 92,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
go'sht (*tirik vaznda*)  
yetishtirish hajmi, tonna**




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 144,8 ming t. sut (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 3,4 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 96,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi ko'rsatilmoqda.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
ishlab chiqarilgan  
sut hajmi, tonna**




## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 109,2 mln. dona tuxum (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 2,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 56,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
olingan tuxum hajmi,  
ming dona**






## Baliq


**Hajmi, t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2023- yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 245,2 t. (2022- yilning yanvar-martiga nisbatan 23,0 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 54,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
ovlangan baliq  
hajmi, tonna**



### Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2023- yining 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,1 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 19,3 % i fermer xo'jaliklariga, 78,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 27,3 % i fermer xo'jaliklariga, 70,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 8,6 % i fermer xo'jaliklariga, 58,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 32,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 020,8 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 24,1 ming boshga (2,4 %) ko'paydi.

## Yirik shoxli qoramollar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 92,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
yirik shoxli qoramollarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 373,3 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 9,5 ming boshga (2,6 %) ko'paydi.

## Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 93,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
sigirlarning umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 2 517,8 ming boshga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni - 50,7 ming boshga (2,1 %) ko'paydi.

### Qo'y va echkilar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 78,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.





**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
qo'y va echkilarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 15 804 taga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 652 taga (4,3 %) ko'paydi.

### Otlar


**Soni, bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 70,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
otlarning umumiy bosh soni,  
bosh**




2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 4 953,4 mingtaga yetdi.


2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 329,7 mingtaga (6,2 % ga kam) ko'paydi.

## Parrandalar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**



**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 58,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



**Surxondaryo viloyati bo'yicha  
parrandalarning  
umumiy bosh soni,  
ming bosh**



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 76-225-65-78